

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLJIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Termiz davlat universiteti
rektori A.Marximov
“27” 08 2022 yil

YER RESURSLARINI BOSHQARISH V ATROF-MUHIT
MUHOFAZASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 510 000 – Biologik va turdosh fanlar
Mutaxassisligi: 70530701 - Tuproqshunoslik (tadqiqot turi bo'yicha)

	<p>yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.</p> <p>11 Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.</p> <p>12 Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 103 b.</p> <p>13 Mirziyoyev SH.M. Paxta xom-ashyosini yetishtirish va uning yig'im terim xarajatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish PQ-2 sonli qarori. 10.11.2021 y.</p> <p>14 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modd.</p> <p>15 Mirziyoyev SH.M. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'jallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PF-5853-sonli Farmoni. 23.10.2019 y.</p> <p>16 Mirziyoyev SH.M. “2022-2026 yillarga mo'jallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-sonli Farmoni. 28.01.2022 y</p> <p>Internet saytlar:</p> <p>17. www.tersu.uz</p> <p>18. www.lib.tersu.uz</p> <p>19. www.tdpu.uz</p> <p>20. www.ziyonet.uz</p> <p>21. www.edu.uz</p> <p>22. www.plantprotection.com</p> <p>23. www.msu.ru</p>
7.	Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar: M.Abramatov - TerDU, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrası mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent</p> <p>X.X.Zokirov – TerDU, “Ekologiya va tuproqshunoslik” kafedrası professori, qishloq xo'jalik fanlari nomzodi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Nurmatov N.J. Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti professori, q.x.f. doktori</p> <p>Azimov B.B. Toshkent Agrar universiteti Agroximiya va tuproqshunoslik kafedrası dotsenti</p>

Fan/modul kodi MTUP3525	O'quv yili 2022-2023	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 5
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Yer resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi	60	90	150
2. I. Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad – magistr'larga o'zlari tanlagan yo'nalishlarga qiziqish uyg'otish, mutaxassislikka oid boshlang'ich ma'lumotlar bilan tanishtirish, kasbga bo'lgan dunyoqarashini shakllantirish, mamlakatimiz agrar sohasini barqaror rivojlantirishda ushbu sohadagi ilg'or ishlanmalarni tadbqiq etish hamda, bugungi kunda nafaqat respublikada balki sayyoramizda yuzaga kelgan ekologik muammolarni tahlil qilish va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha umumiy bilim, ko'nikma va malakalar shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – yer resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi haqidagi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar asosida bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslab talabalarga yetkazib berish, ikkinchidan tuproqning biosfera va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati haqidagi tasavvurlarini kengaytirish orqali tuproqni sof va unumdor saqlash bo'yicha qiziqishlarini uyg'otish, uchinchidan o'simliklar oziqlanishining nazariy asoslari va o'g'itlardan foydalanishda tuproqning ahamiyati, oziq moddalarning dehqonchilikda aylanishi va agrokimyoning ekologik muammolarini o'z ichiga oladi. Shuningdek dunyo yer resurslari va ulardan foydalanish samaradorligi, O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, yer kadastr, yerlardan foydalanishning nazariy asoslari, monitoring, yer resurslari va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish mavzularini ham mukammal o'rganadi. Fan bo'yicha talabalar bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. Magistr: - yer resurslaridan samarali foydalanish uslublarini takomillashtirish bo'yicha zaruriy hujjatlarini to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; - yer resurslaridan foydalanishda ilg'or texnologiyalarni qo'llashni; - O'zbekistonda yer resurslari va yerlardan oqilona foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi; - yer resurslaridan foydalanishda yer kadastr ma'lumotlarini qo'llash; - horijiy mamlakatlarda yer resurslaridan foydalanish tajribasini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi. Fanning ahamiyati, mazmuni va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi.			

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

III.1. Fan (Yer resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi) tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Fanga kirish. "Yer resurslarini boshqarish v atrof-muhit muhofazasi" fanining mazmuni va metodlari

Yer resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi fanining maqsadi, vazifasi va mazmuni, dunyo yer resurslaridan foydalanish samaradorligi. O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish va yerdan oqilona foydalanishni tashkil etish. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari, suv resurslari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

2-mavzu. Tog' jinslarini tuproqqa aylanishi

Dunyo yer resurslari va undan foydalanish samaradorligi.

Rivojlangan davlatlarda yer resurslaridan foydalanishning ilg'or usullari. Yer resurslarini davlatlararo taqsimoti. Markaziy Osiyo davlatlarida yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning holati. Yer resurslaridan foydalanishning davlatlararo ilg'or tajribalari va texnologiyalari.

3-mavzu. Yer resurslari haqida umumiy ma'lumot.

Yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning bugungi holati.

4-mavzu: Alamashlab ekish muammolari. Yer resurslarining meliorativ holati.

Yerlarning tanazzuliga sabab bo'luvchi omillar. Tuproqning shamol va suv eroziyasi. Yerlarning pestitsidlar bilan ifloslanishi.

5-mavzu: Yerdan foydalanishni ro'yxatga olish/

Yerlarni ro'yxatga olish. Yerga egalik qilish huquqini rasmiylashtirish. Yer hisobotining mohiyati.

6-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Yer fondi.

Yer kadastrining ob'ekti, asosiy toifalari. Respublika yer fondining yer toifalari bo'yicha taqsimlanishi.

7-mavzu: Yer egaligi yer kadastrining asosiy birligidir.

Yer fondining tarkibi. Qishloq xo'jaligi yer turlari.

8-mavzu: O'zbekistonda yer resurslari va yerlardan oqilona foydalanishni tashkil qilish.

O'zbekistonda yer resurslari. Yerlardan oqilona foydalanishni tashkil qilishda yer kadastrining ob'ekti.

9-mavzu: Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarining holati.

Sho'rlanganligi, eroziyaga uchraganligi hamda mexanik tarkibi bo'yicha ma'lumot. Sug'oriladigan ekin yerlar.

10-mavzu: Yer resurslaridan foydalanishning nazariy asoslari.

Yer resurslarini zamonaviy nazariyalari. Yerdan foydalanishning nazorati va muhofazasi.

11-mavzu: Yer monitoringi

Yer monitoringining turlari va tizimi. Mahalliy, mintaqaviy monitoring.

12-mavzu: Suv resurslari.

Suv resurslarining bugungi holati va ekologik muammolari.

13-mavzu: O'zbekiston respublikasi suv resurslari.

Daryolar, suv omborlari, ko'llar, havzalar va yer osti suvlari. Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish.

14-mavzu: Tuproqning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati.

Tabiiy va antropogen omillarning yer resurslariga ta'siri. Yer resurslarini cho'llanish, sho'rlanish va botqoqlanishdan muhofaza qilish. Shahar va sanoat inshootlarining qishloq xo'jaligi muomalasidagi yerlarga ta'siri. Tuproq unumdorligi va uni yaxshilash tadbirlari.

15-mavzu: O'zbekistonda yer va yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning huquqiy asoslari.

O'zbekistonda yer resurslarini muhofaza qilish va boshqarishning ijtimoiy, iqtisodiy jihatlari. Yer resurslarini boshqarish va ekologik muammolarini hal etishda O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yer resurslaridan foydalanish bosqichlari va qonuniyatlari..
2. Yer resurslari foydalanishida yer kadastrining roli va tuproq unumdorligini oshirish yo'llari.
3. Mintaqa, viloyat va tuman shaharlarda yer resurslardan foydalanish masalalari.
4. Shaharlarda yer resurslardan foydalanish.
5. Yer resurslardan foydalanishda ta'minoti.
6. Rivojlangan davlatlarda yer resurslaridan foydalanishning ilg'or uslublari
7. Yer resurslaridan foydalanishning nazariy va xuquqiy asoslari.
8. Yer resurslaridan foydalanish uslublari. Yer munosabatlarini tartibga solishga yer resurslardan foydalanishning o'rni.
9. Respublika, viloyat, tuman shaharlarda yer resurslardan foydalanishning

3.	<p>xususiyatlari.</p> <ol style="list-style-type: none"> 10. Yer resurslaridan foydalanishda ma'lumotlar bankini yaratish. 11. Yer resurslaridan foydalanishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash. 12. Yer kadastri ma'lumotlarini olish, qayta ishlash va tahlil qilish usullari. 13. Yer resurslaridan foydalanishda yer kadastri ma'lumotlaridan foydalanish. 14. Xorijiy mamlakatlarda yer resurslaridan foydalanish tajribalari. 15. Tabiiy va antropogen omillarning yer va yer resurslariga ta'siri <p>Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jhozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor – o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p style="text-align: center;">III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yer resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi fanining maqsadi, vazifasi va mazmuni, dunyo yer resurslaridan foydalanish samaradorligi. 2. O'zbekistonda yer resurslarini boshqarish va yerdan oqilona foydalanishni tashkil etish. 3. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy asoslari, suv resurslari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. 4. Rivojlangan davlatlarda yer resurslaridan foydalanishning ilg'or usullari. Yer resurslarini davlatlararo taqsimoti. 5. Markaziy Osiyo davlatlarida yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning holati. 6. Yer resurslaridan foydalanishning davlatlararo ilg'or tajribalari va texnologiyalari. 7. Mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning uslubiy masalalari. 8. Yer resurslaridan foydalanish tizimida samaradorlikni aniqlash. 9. Yer resurslarini foydalanishga oid qonunlar majmuasi. 10. Yerdan foydalanuvchi sub'ektlarda yer resurslarini foydalanish. 11. Yer xuquqi. 12. Yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning bugungi holati. <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p style="text-align: center;">V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Magistr bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Yer resurslari ma'lumotlaridan samarali foydalanish uslublarini takomillashtirish bo'yicha zaruriy hujjatlarini to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>; • Yer resurslari ma'lumotlaridan foydalanishda ilg'or texnologiyalarni
----	--

4.	<p>qo'llashni; O'zbekistonda yer resurslari fondi toifalari va yerlardan oqilona foydalanishni <i>bilishi va ulardan foydalanishni olishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> • Yer resurslaridan foydalanishda yer kadastri ma'lumotlaridan qo'llash; horijiy mamlakatlarda yer kadastri ma'lumotlaridan foydalanish tajribasini qo'llash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>. <p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test va yozma ismi muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Namozov X. Yer resurslaridan foydalanishda yer kadastrining roli va tuproq unumdorligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2001 y 2. Nomozov X. va boshqalar "Yer va suv resurslaridan foydalanish." "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2011 yil. O'quv qo'llanma 3-180 bet 3. Nomozov X. va boshqalar "Yer resurslaridan foydalanish va himoyalash". O'quv qo'llanma "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2011 yil. O'quv qo'llanma. 10-220 bet 4. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari holati to'g'risida milliy hisobot. Toshkent, 2016 yil. 5-14 bet. 5. Nomozov X. va boshqalar "Tuproq bonitrovkasi va xaritalash". Darslik "Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi" 2021. 6. Zokirov X.X. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Darslik. Surxon Nashr-2020. 7. Zokirov X.X. Surxondaryo tabiati va ekologiyasi. O'quv qo'llanma. TerDU nashr matbaa markazi nashriyoti 2021 y 8. Saidov M., Zokirov X.X. "Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasi" Darslik. TerDU nashr matbaa markazi nashriyoti 2021 y 9. Q.Rahmonov, Sh.K.Narbayev, Z.M.Muqimov. Yer resurslarini boshqarish O'quv qo'llanma. Toshkent – 2018. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 9 Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b. 10 Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash